



YANGI YIRIK LOYIHALAR BILAN HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA'KIDLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-aprel kuni Toshkent shahrida ish boshlagan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" beshinchi xalqaro sanoat ko'rgazmasiga tashrif buyurdi.



Ko'rgazma "Central Asian Expo Uzbekistan" majmuasida o'tkazilmoqda. Ekspozitsiyaning umumiy maydoni 18 ming kvadrat metrdan ziyod. Unda Rossiya, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlardan 10 mingdan ortiq delegatlar ishtirok etmoqda.

Ko'rgazmada mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo sanoati,

transport, qurilish, IT va boshqa tarmoqlardagi yetakchi korxonalarining texnologik yechimlari, zamonaviy uskunalari va tayyor sanoat mahsulotlari namoyish etilmoqda.

Pavilyonlar va ekspozitsiyalarni ko'zdan kechirish chog'ida davlatimiz rahbari iqtisodiy kooperatsiya uchun katta salohiyat va yangi biznes g'oyalari ishlab chiqish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjudligini alohida ta'kidladi.

Forum yangi yirik loyihalarni ilgari surishga sur'at bag'ishlashi, uzoq muddatli shirklik aloqalarini rivojlantirish va hududlararo hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Tadbir doirasida O'zbekiston Prezidenti Rossiya Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Rossiya delegatsiyasi rahbari Prezidentimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'tgan yil may oyida Rossiya Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi yakunida erishilgan kelishuv va bitimlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlashning o'sish sur'ati saqlanib qolmoqda, ikki mamlakat hududlarini faol jalb etgan holda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, kooperatsiya loyihalari va dasturlarini ilgari surish, shu jumladan, "Innoprom" forumi doirasida o'zaro muvofiqlashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Tatariston Raisi Rustam Minnixonov bilan uchrashuvda yetakchi korxonalarining sanoat kooperatsiyasini va faol gumanitar almashinuvni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Jadal muloqotlarni davom ettirish, neft-gaz, kimyo, transport, turizm va boshqa sohalarda, shu jumladan, O'zbekiston hududlaridagi sanoat zonalarini doirasida qo'shma loyihalarni ilgari surishga kelishib olindi.

"Rosatom" davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachev bilan suhbatda tinch atom sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi va tibbiyotda yadro texnologiyalarini qo'llash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Toshkent shahridagi "MIF" filiali negizida kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari davra suhbatida ishtirok etdi. Unda ikki mamlakat hududlari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha aniq rejalamni taqdimot qilildi.

O'ZA

INNOPROM

MARKAZIY OSIYO

DAVLATLARI SANOATINING YORQIN NAMOYISHI

O'tgan besh yillik an'anaga ko'ra, aprelning so'nggi kunlarida poytaxtimiz yirik xalqaro tadbir —

"INNOPROM. Markaziy Osiyo" sanoat ko'rgazmasiga mezbonlik qilmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi

"CAEx Uzbekistan" xalqaro ko'rgazmalar markazida boshlangan sanoat ko'rgazmasida dunyoning turli davlatlardan 10 mingdan ziyod ishtirokchi, 500 dan ortiq xorijiy kompaniya vakili qatnashmoqda.



INNOPROM
CENTRAL ASIA

Xalqaro ko'rgazma yurtimizning iqtisodiy, investitsiyaviy, sanoat hayotidagi yana bir muhim voqeadir. Bir necha kun davom etadigan tadbirda Markaziy Osiyo davlatlari sanoatining eng yangi yutuqlari namoyish etiladi. Ko'rgazma ilg'or innovatsiyalar va hamkorlik uchun muhim platformaga aylanadi.

Joriy yilgi shukuh ham, ko'lam ham ancha keng. Buni "INNOPROM. Markaziy Osiyo" V xalqaro sanoat ko'rgazmasining tantanali ochilish marosimidan ham anglash mumkin.

Ko'rgazmaga tashrif buyurib, pavilyon va ekspozitsiyalarni ko'zdan kechirgan davlatimiz rahbari iqtisodiy kooperatsiya uchun katta salohiyat va yangi biznes g'oyalari ishlab chiqishga qulay imkoniyatlar mavjudligini alohida ta'kidladi. Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining

birinchi o'rinbosari Denis Manturov esa O'zbekiston Prezidentiga taqdim etilgan sanoat mahsulotlari namunalari haqida so'zlab berdi.

Ko'rgazma maydonidagi asrimiz sanoatining eng yangi namunalari — robotlar, zamonaviy transport vositalari, dronlar, ilg'or texnologik qurilmalar bir qarashdayoq kishini hayratga soladi.

Mehmonlarning aksari shunchaki tomoshabin emas, ishtirokchi korxonalar bilan hamkorlik o'rnatish, yangi bitimlar imzolash istagidagi tadbirkorlar va investorlardir. Axir shuncha sanoat korxonalari vakillari bilan bevosita muloqot qilishdek imkoniyat har doim ham bo'lavermaydi.

Davomi 2-beta

O'ZBEKISTON O'Z TARIXIDA ILK BOR BMT STATISTIKA KOMISSIYASIGA SAYLANDI

Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Statistika Komissiyasining 2026-2029-yillarga a'zo davlatlarini saylash jarayonida O'zbekiston ushbu organ a'zosi etib bir ovozdan saylandi.

Ta'kidlash joizki, Statistika Komissiyasi 1947-yilda BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (IIK) tomonidan funksional organ sifatida tashkil etilgan. U xalqaro statistika sohasining rivojlanishini belgilovchi asosiy hukumatlararo tashkilot bo'lib, universal statistika standartlari va metodologik prinsiplarga oid ishlarni muvofiqlashtiradi. Komissiya 24 ta

davlatdan iborat bo'lib, ular 4 yilda bir marta geografik taqsimotni hisobga olib saylanadi.

O'zbekistonning ushbu organ a'zosi etib saylanishi mamlakatda Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning xalqaro miqyosda tan olinishi va mamlakatning global jarayonlardagi o'sib borayotgan rolini ko'rsatadi.

Statistika Komissiyasiga to'liq a'zo bo'lish O'zbekiston uchun global statistik siyosatni shakllantirishda ishtirok etish, milliy tajriba va islohotlar yutuqlarini namoyish qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun keng imkoniyatni ochib beradi.

"Dunyo" AA

Nyu-York shahri



YURT TARAQQIYOTIGA DAXLDORLIK

MAHALLA RAISI SAYLOVI JARAYONIDAN HECH BIRIMIZ CHETDA QOLMAYLIK!

Shu yil may-iyul oylarida mamlakatimizda muhim tadbir — fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'tkaziladi. Ayni kunlarda jarayonga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston mahallalari uyushmasida respublika shtabi, 14 ta hudud hamda 208 ta tuman va shaharda mahalla raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalar huzurida shtablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu yilgi saylovning avvalgilardan farqli jihatlari bormi? Mahalla oqsoqoli maqomiga kimlar munosib bo'la oladi va ularning oldida qanday vazifalar turibdi? Yurtimizda so'nggi yillarda mahalla institutining jamiyatimizdagi o'imi va mavqei ko'tarish

borasida amalga oshirilayotgan ishlar qanday samara bermoqda? O'zbekiston mahallalari uyushmasi mutasaddilari, olim va ekspertlarning shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.

Davomi 3-beta



"KITOBXONLIK HAFTALIGI" QANDAY O'TDI?

Dasturning ma'nan kengaygan mundarijasi

5



Xalqning tarixi va madaniyati, avvalo, uning og'zaki ijodi, folklorida mujassam bo'ladi. Folklor millatning o'zligini anglash, qadriyatlarini va an'analarni saqlash va rivojlantirishda bebaho manbadir. Bunda, ayniqsa, Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlash kerak.

Joriy yil 26-28-aprel kunlari ko'hna Xiva shahrida IV xalqaro baxshichilik san'ati festivali va uning doirasida II Turkiy dunyo madaniyati forumi bo'lib o'tdi.

Yarim tunda Xorazmning "havo darvozasi" — Urganch aeroportiga qo'ndik. Bahor shabadasida Amudaryo bo'ylaridagi o't-o'lanlar ifori dimoqqa uriladi. Aeroportda

karnay-surnay sadosi, azim yurtning kuy-qo'shiqlari ostida xorijiy mehmonlar, festival qatnashchilari kutib olindi. Xorijliklar mahalliy aholi bilan lazgiza tushib, bayramona shukuhga qo'shildi. So'ng mehmonxonada tomon otlandik.

Davomi 6-beta





O'zbekiston va dunyo

BARQAROR YAQINLASHUV SARI YO'L

O'zbekiston mezbonligida o'tadigan Ko'rfaz hamkorlik kengashi va Markaziy Osiyo davlatlari (GCC - C5) o'rtasidagi ikkinchi sammit ikki mintaqa munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim siyosiy maydon vazifasini o'taydi.

Eldor TULYAKOV,
"Taraqqiyot strategiyasi"
markazi ijrochi direktori



Bugungi murakkab sharoitda faqat hukumatlararo emas, balki jamiyatlararo yaqinlashuv ham barqarorlik va o'zaro ishonchning asosiy poydevoriga aylangan. Sammit doirasida odamlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, aql markazlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mamlakatlari o'rtasida energetika, savdo, transport va xavfsizlik sohalarida hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Biroq bu siyosiy kelishuvlarning mustahkam va uzoq muddatli bo'lishi odamlar o'rtasidagi munosabatlarga orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Jahon tajribasiga ko'ra, insonlararo aloqalar diplomatik muloqot uchun ijtimoiy zamin yaratadi. Barqarorlik muhitini ta'minlaydi va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Shuning uchun ushbu masala sammit kun tartibining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mamlakatlari islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridir. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlarni Makka, Madina va Dubay bilan bog'lovchi tashabbuslar nafaqat turizm, balki ma'naviy va tarixiy birlikni ham mustahkamlaydi. Bu xalqlarimizning o'zaro boy madaniyati va tarixi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini oshiradi, jamoatchilikning davlatlararo hamkorlikni yaxshi qabul qilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston bu yo'nalishda qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. 2023-yilda Saudiya Arabistoni fuqarolari

uchun vizasiz rejim joriy etildi. 2024-yildan BAA bilan o'zaro vizadan ozod qilish to'g'risidagi kelishuv kuchga kirdi. Qolaversa, boshqa Ko'rfaz mamlakatlari bilan ham shunday tartibni joriy etish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlar odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Davlatlararo munosabatlarda muayyan cheklolvar bo'lishi mumkin, ammo NNTlar jamiyatdagi muhim muammolarga innovatsion yondashish, keng jamoatchilikni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, inklyuziv ta'lim, yoshlar masalalari, raqamli tenglik, gender tenglik kabi jabhalarda NNTlar samarali muloqotni ta'minlash vositasiga aylangan. Ushbu tashkilotlar orqali hukumat va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni chuqurlashtirish, hamkorlikni institutsional darajaga olib chiqish lozim. Ayrim hollarda fuqarolik jamiyati institutlari rasmiy muhokamalardan oldin nozik masalalarni jamiyat muhokamasiga chiqarish orqali ko'priq vazifasini bajarishi mumkin.

Bu jarayonda ekspertlar hamjamiyati va aql markazlarining o'rni beqiyos.

Geosiyosiy beqarorlik va global chaqiriqlar sharoitida aql markazlari o'rtasidagi hamkorlik strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ko'rfaz va Markaziy Osiyo mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan tahliliy markazlar barqarorlik, xavfsizlik, iqtisodiy diversifikatsiya va ijtimoiy siyosat masalalarida intellektual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Birgalikdagi tahlillar, ilmiy maqolalar, ekspertlar almashinuvi orqali o'zaro anglashuv va siyosiy qarorlar sifati oshadi.

Millatlararo hamkorlikni rivojlantirishda turli tashabbus va loyihalar qatorida chegaraga yaqin hududlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga ham e'tibor qarotish lozim.

So'nggi yillarda mintaqamizda kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlar tufayli chegaradoli hududlarda o'zaro hamkorlikning yangi yo'nalishlari shakllanmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, ikki mintaqa mamlakatlari o'rtasida chegaraga yaqin hududlar darajasidagi aloqalarni yanada foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, bunday hududlar o'zaro tajriba almashish imkoniyatini yaratishi, shuningdek, ularning o'ziga xos jihatlardan kelib chiqqan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga zamin hozirlashi mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy darajadagi hamkorlik asosida madaniy festivallar, yoshlar almashinuvi dasturlari, ta'lim yo'nalishidagi sheriklik hamda munitsipal hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Bunday tashabbuslar nafaqat chegarada hududlaridagi faol aloqalarni mustahkamlaydi, balki xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va yaqinlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Bu hududlar xalq diplomatiyasining namunaviy markazlariga aylanib, strategik kelishuvlarni amaliyotga joriy etishda katta o'rin tutadi.

Sammit doirasida muhokama etiladigan masalalarning ijobiy natijalari har bir mintaqa aholisi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda jamiyatlar, insonlar va g'oyalari o'rtasidagi yaqinlashuv muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, rasmiy darajadagi sa'y-harakatlarning samarali amalga oshirilishi va keng jamoatchilik tomonidan to'g'ri anglanishi uchun NNTlar va aql markazlari orqali konstruktiv muloqotni rivojlantirish ikki mintaqa kelajagini belgilaydigan muhim va istiqbolli resurs bo'lib xizmat qiladi.

INNOPROM

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI SANOATINING YORQIN NAMOYISHI

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro ko'rgazma ishtirokchilari ham yangi loyihalar umidida kelgan. Yirik sanoat ko'rgazmasida O'zbekiston, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar, Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlardan yuzlab ishlab chiqarish kompaniyalari, investorlar, biznes delegatsiyalari qatnashmoqda. Ular ko'rgazma maydonining energetika, elektrotexnika va metallurgiya, sanoatni avtomatlashtirish va axborot texnologiyalari, farmatsevtika va tibbiyot kompleksi singari turli sanoat bo'limlarida standarlarni o'rnatib, mahsulotlarini namoyish etyapti.

"INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasining nufuzi yil sayin oshib borayotgani imzolayotgan hamkorlik bitimlarida ham ko'zga tashlanmoqda. O'tgan yili tadbir doirasida umumiy qiymati 4 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo bitimlari yuz berildi. Kelishuvlarning asosiy qismi yurimizning turli hududiga to'g'ri keladi. Mas'ullarning ta'kidlashicha, o'tgan yilning o'zida mamlakatimizning Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo qiymati 20 milliard dollarga yaqinlashgan. Ayni paytda O'zbekistonda ushbu mamlakatlar kapitali ishtirokida tashkil etilgan 5000 ga yaqin korxonalar bor. Yurimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarida 67 milliard dollarlik 650 dan ortiq qo'shma loyiha amalga oshirilmoqda. Bu loyihalarning ko'pgina INNOPROM pavilyonlarida asos qo'yilayotir. Ko'rgazmada ishtirokchilar, turli kompaniya vakillari va investorlarning samarali muloqoti uchun barcha sharoit mavjud. Tadbir doirasida tashkil etilayotgan plener va panel sessiyalar, B2B uchrashuvlar, davra suhbatlari yangi hamkorlik aloqalari o'rnatilishiga xizmat qiladi. Xalqaro ko'rgazmadan ko'zlangan maqsad ham turli sohalaridagi eng yangi texnologiyalar va ishlanmalarni targ'ib qilish, ishlab chiqarish loyihalarini o'rnatish, bitimlar tuzish va yangi loyihalarni amalga oshirishdan iborat. Bunda davlatlarning o'zaro yakdillik, do'stlik munosabatlari muhim o'rin tutadi.

— Mazkur sanoat ko'rgazmasi xorijiy mamlakatlarda katta qiziqish uyg'otayotir, — deydi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi departament boshlig'i Ervin Turg'unov. —

Bu Markaziy Osiyoda istiqbolli va dinamik rivojlanayotgan bozorga nisbatan chet el sanoat kompaniyalarining qiziqishi ortib borayotgani bilan ham bog'liq. Yirik ko'rgazma esa mamlakatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini mustahkamlab, xalqaro miqyosdagi ishtirokchilarga yangi bozorlarni muvaffaqiyatli o'rganishda yordam bermoqda. Xorijliklar ko'rgazma davomida Markaziy Osiyo mintaqasining investitsiyaviy hamda iqtisodiy salohiyati bilan tanishish, o'zaro konstruktiv muloqot qilish imkoniyatiga ega.

Ko'rgazma maydoni bo'ylab ana shunday do'stona muhit yaratilgan. Qo'shni davlatlarning ham alohida ekspozitsiyalari tashkil etilgan. Maydonning asosiy ko'rgazmalar qismida mehmonlar o'zlariga ajratilgan hududda sanoat mahsulotlarini namoyish etyapti. Taklif etilayotgan brendlarning aksariyati yangi turdagi, eng zamonaviy mahsulotlardir. Hech bir stend oldidan shunchaki o'tib ketib bo'lmaydi. Masalan, rossiyaliklar burchagidagi zamonaviy dronlarning turli hajm va ko'rinishdagi namunalarini e'tiborimizni tortdi. Hozir deyarli barcha jabhaga kirib borayotgan dronlar jahon amaliyotida qishloq xo'jaligi, tashuv xizmatlari, yong'in xavfsizligi, topografik suratga olish, media kabi sohalarida keng qo'llanmoqda. Uni "kelajak transportlari" qatoriga qo'shish mumkin. Bu kompaniya ham "Kelajak transporti" deb nomlanadi. 2021-yilda tashkil etilgan dron ishlab chiqarish zavodi Rossiyadagi eng yirik korxonalaridan ekani, 2000 ga yaqin odam ishlashi haqida ma'lumot oldik. Kompaniya vakilining tushuntirishicha, zavodda bir kunda 10 ta dron ishlab chiqariladi. Asosan, 5 xil hajmdagi dronlar ishlab chiqarilib, eng kichigining og'irligi 3 kilo, eng kattasini esa 120 kiloga boradi. Mahsulotlar Dubay, Xitoy, Belarus, Qozog'iston kabi davlatlarga eksport qilinadi.

Kompaniya O'zbekiston bilan hamkorlik boshlashni rejalashtirgan. Mamlakatimizning asosiy hamkorlari qatoriga qo'shilib, shu yil oxirida dron ishlab chiqarish qo'shma korxonasi ishga tushirmoqchi. Bu haqda "INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasida ishtirok etayotgan "Kelajak transporti" kompaniyasi bosh direktori Yuriy Kozarenko ma'lum qildi. Uning

so'zlariga ko'ra, qo'shma korxonalar qurilishi davom etmoqda. Zavodda ishlab chiqariladigan dronlardan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Birinchi bosqichda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 100 million dollardan oshishi rejalashtirilgan.

Xalqaro ko'rgazmada mahalliy sanoat korxonalari ham faol ishtirok etyapti. Ularning aksariyati sanoat ko'rgazmasining doimiy qatnashchilari. Mezbonlar yurtimiz sanoatining eng yangi texnologiyalarini namoyish etish barobarida o'zaro savdo hamkorlarini izlab topmoqda. Toshkent shahridagi "Elektr mashinalari zavodi" korxonasi ham xalqaro ko'rgazmada ikkinchi bor ishtirok etmoqda. O'tgan yili rossiyalik xaridorlar bilan salmoqli kelishuvga erishgan. Joriy yilda qo'shni davlatlardan talab yuqori bo'lmoqda. Gap shundaki, 2022-yildan beri faoliyat yuritayotgan korxonada tog'-kon sanoatida foydalaniladigan transport vositalari uchun doimiy tokda ishlaydigan elektr dvigatellari ishlab chiqariladi. Bunday uskunalarni ishlab chiqaradigan zavodlar ko'p emas. Poytaxtimizdagi mazkur korxonada Markaziy Osiyoda yagona.

— Elektr dvigatellar ekskavator, teplovoz, avtososval, maxsus mashinalar uchun ishlatiladi, — deydi "Elektr mashinalari zavodi" korxonasi direktori o'rmbosari Gulnora Hamroyeva. — Uskunalar og'irligi 300 kilodan 6-7 tonnagacha boradi. Asosiy xaridorlarimiz yurimizdagi kon-metallurgiya kombinatlari. Avvallari ular bunday uskunalarni xorijdan import qilgan bo'lsa, hozir o'zimizdan bir necha barobar arzon xarid qilmoqda. Keyingi yillarda mahsulotimizga xorijiy korxonalar bilan ham talab ortib boryapti. Qator davlatlarga eksportni yo'lga qo'yganmiz. Sanoat ko'rgazmasi doirasida yangi hamkorlar topishni rejalashtiryapmiz.

INNOPROM sanoat ko'rgazmasining yana bir o'ziga xos tomoni bor: uning formati Toshkent shahri bilan chegaralanib qolmay, hududlar bilan faol hamkorlik bitimlari tuziladi. Xalqaro sanoat ko'rgazmasining ilg kundiydoq shartnomalar imzolash marosimi boshlab yuborildi. Xususan, Buxoro viloyati hamda Omsk viloyati bilan savdo-iqtisodiy, Tatariston Respublikasi hukumati bilan Navoiy viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Toshkent viloyati hamda Moskva viloyati o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish memorandumini imzolandi.

Shunday qilib, 30-aprelga qadar davom etadigan xalqaro tadbirni chin ma'noda sanoat kunlari deiyish mumkin. Ko'rgazma doirasidagi o'nlab katta-kichik tadbirlar, uchrashuvlar hamda kelishuvlar manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi chorraha vazifasini o'taydi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Geosiyosiy beqarorlik va global chaqiriqlar sharoitida aql markazlari o'rtasidagi hamkorlik strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ko'rfaz va Markaziy Osiyo mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan tahliliy markazlar barqarorlik, xavfsizlik, iqtisodiy diversifikatsiya va ijtimoiy siyosat masalalarida intellektual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Birgalikdagi tahlillar, ilmiy maqolalar, ekspertlar almashinuvi orqali o'zaro anglashuv va siyosiy qarorlar sifati oshadi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



JIZZAX BRITANIYALIKLAR UCHUN ASOSIY SAYYOHLIK YO'NALISHLARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA

Jizzax viloyati beqiyos go'zal tabiati bilan nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarni ham o'ziga jalb etmoqda. Joriy yilning o'tgan uch oyida viloyatga 78 mingdan ziyod sayyoh tashrif buyurdi. Ular orasida turizm xizmatiga yuqori talab qo'yadigan Yevropa mamlakatlaridan kelayotganlar ortib borayotgani viloyatda bu yo'nalishda sifat o'zgarishlariga erishilayotganidan dalolat beradi.

Turizm

Nurota tog'lari etagida joylashgan Forish tumanining Uxum, Asraf, Mojrum qishloqlari tabiati betakror. Ayniqsa, chetdan kelgan kishini bu yerdagi biologik xilma-xillik o'ziga tortadi.

Uxum qishlog'ining Hayot mahallasida yashovchi Narzulla Musayev 2016-yilda ikki xonadon iborat uy mehmonxona ochgandi. Izlanuvchan tadbirkor Toshkentda seminarlarda qatnashib, sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha malakasini oshirib keldi. Ingliz, rus tillarini yaxshi biladi. Farzandlari ham ingliz tilida ravon gaplashadi. Sayyohlarga yo'lbo'shchilik xizmati ko'rsatayotgan qo'shnilari, jivanlari ham ingliz tilini o'rgandi. Kredit olib, faoliyatini yana kengaytirdi. Xorijlik mehmonlarning didini hisobga olib, uy mehmonxona qurdi. Hozir Narzulla Musayevning "Hayat guesthouse" uy mehmonxonasini xorijlik turoperatorlar ham yaxshi biladi.

— Mehmonlarimizning aksari yevropaliklar, — deydi Narzulla Musayev. — Ularni faqat tabiat emas, xalqimizning urf-odatlari, milliy an'ana va turmush tarzi ham qiziqtiradi. Shuning uchun mehmonxonamiz jihozlanishi, taom tayyorlash, xizmat ko'rsatishda sayyohlarga milliylikni namoyish etishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yaqinda Narzulla Musayevning sayyohlik maskanida xorijlik turistlar oqimini ko'paytirishga qaratilgan qiziqarli tadbir bo'lib o'tdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan xorijiy mamlakatlarda yurimizning sayyohlik salohiyatini targ'ib etish maqsadida



O'zbekistonning turizm elchisi lavozimi joriy etilgan. O'zbekistonning Buyuk Britaniyada faoliyat ko'rsatayotgan turizm elchisi Sofi Ibbotson navbatdagi sayyohlik guruhi bilan birga Forish tumaniga keldi. Xorijlik mehmonlar tumanining sayyohlik obyektlari, xususan, tabiiy go'zallikka boy hududlari va tarixiy yodgorliklari bilan tanishishi asosida Narzulla Musayevning turizm maskanida qiziqarli uchrashuv tashkil etildi. Viloyat, tuman hokimliklari, viloyat Turizm boshqarmasi mas'ullari, tadbirkorlar va qishloq ahlining xorijlik mehmonlari bilan uchrashuvda joriy yilning o'tgan uch oyida Jizzaxga Buyuk Britaniyadan 800 dan ziyod sayyoh jalb qilindi va yil oxirigacha yana 1500 dan ortiq sayyoh kelishi kutilayotgani ma'lum qilindi. Inglizlar uchun Forish asosiy sayyohlik qo'nalig'laridan biri ekanini aytdi. O'zaro muloqotlar davomida sayyohlar oqimini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish



yuzasidan foydali fikr almashuvlar bo'ldi. Jizzax viloyatining sayyohlik salohiyatini Buyuk Britaniyada targ'ib qilish bo'yicha memorandum imzolandi. Tadbir doirasida xorijlik mehmonlarga hudud aholisining amaliy, badiiy namunadlik buyumlari, milliy tomlari ko'rgazmalari, folklor-etnografik jamoalar ijrosida kuy, qo'shiq, raqslar namoyish etildi. Ishtirokchilar hududning sayyohlik jozibasini xorijda keng targ'ib etishga xizmat qiladigan bunday tadbirlar juda foydali ekanini e'tirof etdi. — Jizzax viloyatida ko'p bo'lganman, — dedi O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi

turizm elchisi Sofi Ibbotson xonim. — Bu yerning tabiiy go'zalligini juda qadrlayman. Shuningdek, Jizzax xalqi mehmondo'stligi bilan ajralib turadi. Hayot mahallasi turizm va ekturizm uyg'unlashgan ajoyib hudud. Bu yerda sayyohlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Shu tufayli men sayyohlik guruhini olib kelganimda ularga biror noqulaylik tug'iladi deb umuman o'ylamayman. Bugungi uchrashuvimda hududning sayyohlik jozibasini chiroyli namoyish etdim. Jizzax shahridan 150, Forish tumani markazidan 50 kilometr masofada joylashgan qishloqqa olib Buyuk Britaniyadan sayyohlarni

jalb qilish oson ish emas. Demak, ularni qiziqtiradigan tabiat bor. Dam olish uchun shozit, xizmat ko'rsatish mehmonlarning nozik didiga yarasha tashkil etilgan. E'tiborlisi, buni Yevropa mamlakati vakillari ham e'tirof etmoqda.

— Forish tumanining chekka qishlog'ida ekturizmni rivojlantirish ishlari viloyatimizda sohaning katta imkoniyatlarini ko'rsatib turibdi, — deydi viloyat Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rmbosari Aziz Egamberdiyev. — Joriy yilda viloyatga 500 ming xorijiy, 2 million mahalliy sayyoh tashrif kutilmoqda. Sayyohlarni jalb etish uchun shahar va tumanlar kesimida jebra-grafiklar ishlab chiqildi. Shu maqsadda qator targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Jumladan, joriy yilda 2 ta xalqaro, 10 ta respublika hamda mahalliy miqyosdagi 20 dan ziyod madaniy, ko'ngilochar va sport tadbiri o'tkazilishi

rejalashtirilgan. Xorijidagi diplomatik vakolatxonalar bilan hamkorlikda 4 marta infoturlar tashkil etiladi. Bu tadbirlar sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, viloyatda hokimliklar va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, 1-iyulga qadar Baxmal tumanining Muzbuloq mahallasi hududidagi 207 gektar yerda turizm obyektlari barpo etiladi. Jumladan, 100 gektar maydonda qiymati 10 million dollar bo'lgan dam olish maskani va sog'lomlashtirish markazi, qolgan 107 gektarda qiymati 15 million dollarlik vorkaut maydoni, amfiteatr, velokross, paraplan, mehmonxona hamda savdo va servis xizmatlarini o'z ichiga olgan turizm klasteri tashkil etiladi. Rejaga muvofiq, bu ishlar shu yilning o'zida bajarilishi kerak.

Sayyohlikni rivojlantirish borasidagi bunday yirik loyihalar Zomin, Forish, Arnasoy va boshqa tumanlarda ham amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz yaqinda o'tkazilgan yig'ilishda viloyatda gastronomik turizm markazlari mavjud emasligi, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Nukus va respublikamiz janubiy viloyatlariga o'tayotgan sayyohlarning yo'lidagi muhim bekat bo'lgan Ilo'nti darasidagi Temir darvaza, Temur g'ori hududini obodonlashtirish ishlari pavsalgga solib kelinayotganini e'tiborsizlikdan boshqa narsa bilan izohlab bo'lmaydigan tashkilotlarga jiddiy kamchiliklar bor.

Viloyatda sayyohlarni qiziqtiradigan biologik xilma-xil ektotizm mavjud. Zomin, Baxmal tumanlarining tog' archazor o'rmonlari, Qizilqum cho'li va Nurota tog' tizmalari, Aydar-Arnasoy ko'llari betakror tabiati, noyob hayvonot va nabotot olami bilan sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Tabiat ato etgan bu boylikdan asrab-avaylab foydalanish uchun zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini barpo etishni tezlashtirish juda zarur ishlardan bo'lib turibdi.

Farhod NE'MAT,
jurnalist

YURT TARAQQIYOTIGA DAXLDORLIK

MAHALLA RAISI SAYLOVI JARAYONIDAN HECH BIRIMIZ CHETDA QOLMAYLIK!

Boshlanishi 1-betda

Mahalla fuqarolik jamiyati instituti sifatida

ijtimoiy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga innovatsion yondashuvning betakror namunasi. U nafaqat zamonaviy muammolarga samarali yechim topadi, balki xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosini o'zida jamlagan noyob tuzilmadir.



Dolli ALLAYEV,
O'zbekiston mahallalari
uyushmasi raisi o'rinbosari

Vakolat muddatini uzaytirishga qanday ehtiyoj bor edi?

Shu bois, so'nggi yillarda mahalla institutining o'zni va maqomini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning qonunda belgilangan vakolatlarini ro'yog'ga chiqarishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuzildi. Barcha sohalarida "mahallabay" ishlash usuli keng joriy etildi. Bugungi kunda 9452 ta mahallada "mahalla yetiligi"ning 57 ming 132 a'zosi faoliyat yuritayotadi.

Albatta, "yetillik" faoliyatini tizimli tashkil etish, samarali ishlashni ta'minlashda mahalla raisining o'rni alohida. Mahallalarimizda eng munosib, jonkuyar, fidoyi raislar ishlashi yurtimizdagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni samarali ro'yog'ga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu yil 11-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bu jahdagi islohotlarga yangicha ruh bag'ishladi. Ushbu qonun asosida "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi

aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatidan yanada kengroq xabardor bo'lishi, fuqarolarga yordam ko'rsatishda to'g'ri va talabchan yondashish borasidagi imkoniyatlarini oshiradi.

Mahalla raislari saylovi oxirgi marta 2022-yil may oyida o'tkazilgan bo'lsa, shu kunga qadar uch mingdan ortiq mahalla raisining vakolatlari turli sabablarga ko'ra muddatidan avval tugatilgan. Bu qo'nimsizlik aholining e'tirozlari hamda hududda aniq reja asosida ishlashmasligiga olib kelayotgan edi. Endi bo'shab qolgan o'ringa yangi mahalla raisi to'liq besh yil muddatga saylanadi. Ushbu norma yangi rais mahallada amalga oshirmoqchi bo'lgan vazifalarini to'la-to'kis bajarishi uchun imkoniyat yaratadi.

Yana bir yangilik Oliy Majlis Senati kengashining mahalla raisi saylovini

Deputatlar ishtiroki — yangi bosqichdagi muhim hamkorlik

Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 33 ta funktsiya va vakolat ijro hokimiyatidan mahalliy kengashlarga o'tkazildi. Ana shunday vakolatlardan biri fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish bilan bog'liq.

"Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi qonunda mahalliy kengashlarning fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashishga oid qator vakolat va funktsiyalari belgilab berilgan. Jumladan, fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish muddatlarini saylov boshlanishidan kamida ikki oy oldin Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari tomonidan belgilanadi hamda saylovga tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish muddatlari va tartibi ham aynan mahalliy kengash deputatlari tomonidan tartibga solinadi.

Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishda mahallalarga amaliy yordam ko'rsatish uchun hududlarda tegishli komissiyalar tuzilishi va ushbu komissiyalar tarkibiga fuqarolar yig'inlari, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari bilan birgalikda mahalliy kengash deputatlari



Farrux ABDUHAMIDOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil
qilish markazi eksperti, Xalq
deputatlari Arnosoy tumani
kengashi deputati

ham kiritilishi belgilangan. Bundan ko'rish mumkinki, deputatlar nafaqat mahalla raislari saylovi bilan bog'liq tashkiliy tadbirlarni

“Adliya vazirligi bilan birgalikda joriy yilning fevral-mart oylarida ko'maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlar a'zolari o'qitildi. Shuningdek, ular faoliyatini samarali tashkil qilish uchun mahalla raisi saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiya, "Mahalla sayloviga oid 100 savolga 100 javob" va "Mahalla raisi sayloviga oid normativ hujjatlar to'plami" uslubiy qo'llanmalari, saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlar uchun eslatma ishlab chiqilib, hududlarga yetkazildi.

Mahalla — mustaqil, ammo yolg'iz emas

Bugun yurtimizda mavjud 10 mingga yaqin mahalla izchil demokratik islohotlarning nafaqat bevosita ishtirokchisi, balki faol tashabbuskoriga aylangan. Ayni shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda quyidagi norma mustahkamlandi:

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishining tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli".

Bu o'zgarishlar bir necha ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jihatlarni anglatadi.

Birinchidan, davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularga ko'maklashish majburiyatini oldi.

Ikkinchidan, mahalla oddiy ijtimoiy tuzilma emas, konstitutsiyaviy-huquqiy maqomga ega institut. Bu esa mahallaning faoliyati faqat maishiy yoki tashkiliy vazifalar bilan cheklanib qolmay, aholi huquq va manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish hamda ijtimoiy adolati qaror to'rtirishda muhim konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizm sifatida belgilanganini anglatadi.

Uchinchidan, mahalla faoliyatini o'ziga xos tarixiy, milliy va ma'naviy qadriyatlar, shuningdek, mahalliy urf-odatlar asosida amalga oshiradi. Ushbu xususiyat uni jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlovchi betakror ijtimoiy muhitga aylantiradi.

Yangi konstitutsiyaviy norma orqali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yanada faollikka chorlab aytmoqchimanki, mahalla raisi saylovi har birimizning farovon hayotimiz va taqdirimizga bog'liq muhim masaladir. Zero, yurtimizdagi hayotbaxsh islohotlardan har bir inson bahramand bo'lishiga erishishda mahalla faollari, ayniqsa, oqsoqolning tashabbuskorligi va fidoyiligi ulkan ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bu lavozimga munosib nomzodlarni saylashda har bir mahalla ahlining fikri, ishtiroki, jarayonlarga beqaror emasligi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, barchani ushbu saylovda faol qatnashishga chorlaymiz.



Ixtiyor BEKOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi". Ushbu norma davlatning muhim majburiyatini nazarda tutadi. Bu yerda "shart-sharoit yaratish" va "ko'maklashish" tushunchalari davlatni betaraf kuzatuvchi emas, balki amaliy yordamchi sifatida namoyon qiladi. Davlat mahallaning faoliyatiga moliyaviy, tashkiliy, huquqiy jihatdan amaliy ko'mak ko'rsatishi lozim.

Mahalla — mustaqil, ammo yolg'iz emas. Bu jihat mahallaga mustaqil faoliyat yuritish imkonini beradi, shu bilan birga, yuksak vazifalarini bajarishda davlat uni yolg'iz qoldirmasligi kerakligini ham belgilaydi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Bu davlat va mahallaning umummilliy farovonlik yo'lida yelkadosh bo'lib harakat qilishini kafolatlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari — mahalla institutining huquqiy maqomi, vazifa va vakolatlari alohida tartibda belgilab berildi. Bu jarayon faqat deklarativ emas, balki aniq qonunchilik islohotlari orqali kechmoqda.

Mahalla instituti rivojlanishi keyingi davr, ayniqsa, 2023-2024-yillarda davlat

tasdiqlaydi, balki saylov komissiyalari tarkibiga kiritilib, saylov jarayoni shaffof va adolati o'tishini nazorat qilib borishda ham faol ishtirok etadi.

Ushbu qonunga muvofiq, tegishli hududdagi mahalliy kengash deputatlari fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazish uchun fuqarolar yig'ini qarori bilan tuzilgan ishchi bilan mahalliy kengash deputatlarining guruh a'zolarida tegishli komissiyaga taqdim etish uchun fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflar berish vakolati bor.

Umuman olganda, bugun mahalla raislari saylovida deputatlarining faol ishtiroki mahalliy boshqaruv tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik jamiyatdagi demokratik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Joylarda mahalliy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ularga uslubiy yordam ko'rsatish Oliy Majlis Senati tomonidan amalga oshiriladi. Senatning tegishli qarori bilan mahalliy kengash deputatlarining "mahalla yetiligi" bilan bevosita hamkorlikdagi vazifalarining aniq chegaralari belgilab berilgan o'zaro aloqalar rivojida muhim o'rin tutmoqda.

Mahalliy kengash deputatlari tomonidan "mahalla yetiligi" bilan birgalikda loyihalarni ijrosini o'rganib borish, muammoli masalalarni aniqlash va mahalliy kengashga kiritish orqali aniqlangan muammoli masalalarni kengash sessiyalarida muhokama qilish yo'li bilan hal etish vazifasi shular jumlasidan. Bu esa xalqchil tashabbuslarni hayotga tatbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi bir qancha maqsadlar doirasida mahalla instituti

faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan vazifalar nazarda tutilgan. Xususan, aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'priklarni" aylanitirishga oid muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu vazifalar doirasida mahalla mablag'larini aholi ovozigga ko'ra infratuzilma loyihalarga yo'naltirish amaliyoti joriy qilinib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag' miqdori kamida 3 barobar ko'paytiriladi. Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag' hajmi esa 24 trillion so'mga yetkaziladi.

Shu bilan birga, mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatini "bir qadam" tamoyili asosida ko'rsatish yo'lga qo'yilib, aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlar to'la raqamlashtirildi. Har bir mahallada "elektron xizmat nuqtalari" ishga tushirildi. Yana bir muhim yo'nalish — hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahallaning o'zida hal qilinadigan xalqchil tizim yaratiladi.

Qisqacha aytganda, yaqin kelajakda mahalla fuqarolarning davlat bilan mulqot nuqtasi, islohotlarning "birinchi bosqichi" va davlat siyosatining mahalliy ifodasiga aylandi. Bu esa mahalla boshqaruvini faqat ma'muriy institut emas, balki jamoatchilik nazorati, fuqarolik faolligi va manfaatlar ifodasi tizimi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq, mahalla raislari besh yil muddatga saylanadi.

Mahalla raisining vakolat muddatini uzaytirishga qanday ehtiyoj bor, buning afzalligi nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga javoban aytish mumkinki, so'nggi yillarda mahalla instituti faoliyatini samaradorligini oshirishga oid islohotlar natijasida "mahalla yetiligi"ga nafaqat qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar taqdim etildi, balki mas'uliyat ham oshirildi.

Xususan, aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalarni ajratish vakolati bilan birga ushbu yordamlarning maqsadli va manzilli yo'naltirilishiga mas'ullik va javobgarlik ham "yetillik" zimmasiga yuklandi. Natijada mahalla har bir oila, har bir inson muammosi, darud tashvishiga chuqur kirib bora oladigan xalqchil tuzilma sifatida yanada faollashdi.

"Mahalla yetiligi"ning umumiy rahbari sifatida mahalla raislari mas'uliyati kuchaytirilayotgan bir vaqtda ularning vakolat muddati o'z bilim va tajribasini amaliyotda qo'llash, belgilagan rejalarni to'la va sifati amalga oshirish uchun yetarli emasligi, ya'ni qisqaligi sezilayotgan edi.

Qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, vakolat muddati besh yilga uzaytirilishi mahalla fuqarolar yig'ini raislarining o'z hududi

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida hayotimizning barcha jabhalarini isloh etish, jumladan, mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash, kambag'allikni kamaytirish, ishsizlikni bartaraf etish, ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni hayotga tatbiq qilish, hududlarning ekologik holatini yaxshilash va yashillikni kengaytirish kabi muhim chora-tadbirlarni ro'yog'ga chiqarishda mahallaning o'rni beqiyos.

Albatta, bu borada ko'zlangan maqsad va rejalarni to'la ro'yog'ga chiqishda mahallalarda xayrli ishlariga doimo bosh-qosh bo'ladigan fidoyi, jonkuyar, tashabbuskor oqsoqollarning o'z o'rni bor. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, yurtimizda bo'lib o'tadigan mahalla raisi saylovi faqatgina mahallalar rivojiga emas, yurtimiz taraqqiyotini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini yuksaltirishda ham samara beradi. Shu bois, har birimiz mazkur siyosiy tadbirda faol ishtirok etish orqali mahallamiz obodligi va rivoji, pirovardida esa yurtimiz ravnaqiga hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.

Jizzaxda xalqaro biznes-forum:

SARMOYADOR O'Z-O'ZIDAN KELMAYDI

Jizzaxdan nafaqat yurtimiz viloyatlari, qator qo'shni davlatlar, balki butun Yevrosiyoni tutashiruvchi xalqaro ahamiyatga ega avtoyo'l o'tgan. Hududdagi o'nta shahar va tumanga temir yo'l tarmoqlari kirib borgan. Zominda mahalliy aeroport ishlab turibdi.

Hududning bu qulay joylashuvi xorijlik sarmoyadorlarni o'ziga jalb etmoqda. Viloyatda 2024-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 3,3 milliard dollar tashkil etib, aholi jon boshiga 2,2 ming dollarga to'g'ri kelgan. Tashqi savdo aylanmasi 2 milliard, jumladan, eksport 208 million va import 1,8 milliard dollarga yetdi.

Bugun viloyatda xorijiy kapital ishtirokida 201 ta — 86 ta qo'shma, 115 ta chet el korxonasi ishlayapti. So'nggi 5 yilda hududda 3,2 milliard dollar o'zlashtirilib, 2021-yildagidan 2,5 barobar o'sishga erishildi. Xorijiy kapitalni jalb etish davom etmoqda. 2025-yilda 77 ta loyiha hisobiga 1,4 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kredit o'zlashtirilishiga erishish hisob-kitob qilingan.

Xorijiy sarmoyador o'z-o'zidan kelmaydi, albatta. Uni manfaat yetaklab keladi. Qulay infratuzilma, logistika, bir so'z bilan aytganda,

biznes sharoiti jozibasini xorij kapitalini jalb etadigan asosiy omillardir. Bu qulayliklarni xorijliklarga namoyish etish uchun xalqaro diplomatiya ham kerak. Shu maqsadda keyingi yillarda viloyat tadbirkorlarining xorijiy mamlakatlarga va chet ellik ishbilanmonlarning viloyatga o'nab tashriflari amalga oshiriladi.

Eng ko'p bordi-keldi Xitoy bilan bo'ldi. Natijada bugun viloyatga kiritilgan xorijiy investitsiyaning salmoqli — 927,5 million dollari ushbu mamlakat hissasiga to'g'ri kelib, jami investitsiyaning 65,3 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotida Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Italiya, Germaniya, Janubiy Koreyaning ulushi ortib bormoqda. Keyingi paytda Hindiston, Kuvayt, Shveysiya kabi mamlakatlar investitsiya kiritmoqda.

Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar mablag'larini qayta ishlash va eksport bo'y-



yor mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlariga sarflayotgani iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda to'qimachilik, qurilish materiallari, mashinasozlik va ehtiyot qismlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo sanoati rivojlanmoqda. Elektrotexnika, meva-sabzavotni qayta ishlash, charam-poyabzal, qog'oz sanoati va dorivor o'simliklarni qayta ishlab yo'nalishlarida xorijiy sarmoyalar ulushi sezilarli darajada ortmoqda.



Xorijiy investitsiya hisobiga mashinasozlik sanoati tez rivojlanmoqda. Jumladan, "ADM Jizzax" MCHJda Janubiy Koreya va xitoylik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda 310 million dollar investitsiya o'zlashtirilib, "KIA", "Chery", "Haval" brendi ostida yengil avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda korxonaning ishlab chiqarish quvvati 100 ming donaga yetdi.

Erishilgan bu kabi yutuqlar bilan birga viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda hali ishga solinmagan katta imkoniyatlar bor. Masalan, hududda 14 turdagi 162 ta foydali noruda qazilma koni mavjud. Ularda shisha, volastonit, selen, bazalt, marmar, mineral bo'yoqlar, mineral tola, sement kabi xomashyo zaxiralari aniqlangan.

Xuddi shunday imkoniyatlar qishloq xo'jaligi sohasida ham anchagina. Viloyat to'qimachilikni

rivojlantirish uchun paxta, pilla, jun xomashyosi mahsulotlari bo'yicha katta zaxiralarga ega. Yiliga 171 ming tonnadan mo'iroq paxta, 85,8 ming tonnadan ortiq tola, 78,7 ming tonnadan ziyod ip-kalava, 26,6 ming tonna trikotaj mato, ming tonna pilla xomashyosi yetishtirilmoqda. Biroq mahsulot hajmiga nisbatan olib qaraganda, qayta ishlash salmog'i ancha kam.

Masalan, chorvachilik tarmog'ida 1,7 million dona teri xomashyosining atigi 8 foizi qayta ishlanmoqda. Go'shni qayta ishlash bundan ham kam — 7 foizni tashkil etadi. Hududda yetishtirilayotgan 714 ming tonna sutning 12 foizi qayta ishlanmoqda. Dehqonchilikda ham qayta ishlash korxonalari yetarli emas. Yetishtirilayotgan 100 ming tonna mevanning 25 foizi, 492 ming tonna sabzavotdan 35 foizi, 33 ming tonna uzumdan atigi 6 foizi qayta ishlanayapti.

Bu mahsulotlar qayta ishlansa, hudud farovonligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Biroq qayta ishlash korxonalari ehtiyojga qaraganda kam, qurishga sarmoya yetishmayapti.

— Shuning uchun xorijiy investitsiya jalb etishga katta e'tibor qaratyapmiz, — deydi viloyat hokimi o'rinbosari U. Mo'yinaliyev. — Sarmoyadorlar esa o'z-o'zidan kelavermaydi. Ularning oldiga borish yoki ularni bu yerga taklif qilish kerak. Jahonning turli mamlakatlardan investorlarni viloyatimizning xushmanzara Zomin dan olish hududiga taklif etib, "Xalqaro biznes-forum — Jizzax 2025" tashkil etishdan ham shu maqsad ko'zda tutilgan edi.

Ushbu nufuzli tadbir Tashqi ishlar, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklari hamda Jizzax viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etildi.

Forumda mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalariga ko'ragida 40 dan ortiq davlatdan 300 xorijiy, 100 mahalliy investor, Toshkent shahridagi diplomatik korpus vakillari, hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Forum ishtirokchilari Jizzaxning investitsiyaviy imkoniyatlarini, qishloq xo'jaligi, sanoat, turizm va xizmat ko'rsatish sohalaridagi loyihalarni, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar va shart-sharoitlar bilan tanishtirildi. Bir qancha kelishuvlar imzolandi.



Eng ko'p bordi-keldi Xitoy bilan bo'ldi. Natijada bugun viloyatga kiritilgan xorijiy investitsiyaning salmoqli — 927,5 million dollari ushbu mamlakat hissasiga to'g'ri kelib, jami investitsiyaning 65,3 foizini tashkil qiladi.

Samih BADVIY, "Nile Sugar" kompaniyasi rahbari (Misr):

— O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 20-21-fevral kunlari Misrga rasmiy tashrifi doirasida "Nile Sugar" kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida umumiy qiymati 400 million dollarlik qand lavlagi yetishtirish va shakar ishlab chiqarish yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

Loyihada G'allaorolda 50 ming gektar lalmi yer o'zlashtirilib, suv tejamlor texnologiyalar asosida qand lavlagi yetishtirish, 100 gektarda kunlik quvvati 12 ming tonna qand lavlagini qayta ishlovchi, yiliga 200 ming tonna shakar ishlab chiqaruvchi zavod qurish ko'zda tutilgan. Loyiha doirasida 2 ming doniy va 10 ming mavsumiy ish o'rni yaratilishi rejalashtirilmoqda. Forumda ishtirok etayotganimdan, loyihalarni samarasini berishidan mamnunman.

Ju CHU, "Aoling Elevator H.K. Limited" menejeri (Xitoy):

— Mehmondo'st, samimiy xalqingiz bor. In'om etilgan tabiat, iqlim, to'rt fasl, barchasi bir joyda mujassam. Atrofga boqib, to'g'risi, to'yamayman. Shu yerda yashagim, qolгим kelyapmi. Forum menga ilhom berdi, tadbirkor do'stlarimni, hamkorlarimni Jizzaxga chaqirib, shu yerda yangi loyihalarni rejalashtirdim. Bugungi xalqaro biznes-forumda viloyatda turli sohalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yetarli resurs va sharoitlar mavjudligiga guvoh bo'ldim.

Darhaqiqat, viloyatda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Misol uchun, Jizzax shahrida barcha infratuzilmaga ega 596,9 gektarli erkin iqtisodiy zona, Zomin tumanida "Zomin texnopark" maxsus sanoat zonasida 138,4 gektarli, G'allaorol tumanida 847 gektarli maxsus sanoat zonasi va tumanlarda 25 ta kichik sanoat zonasi va 10 ta yoshlar sanoat zonasi tashkil etilgan. Hozir ushbu sanoat zonalarida 805,2 gektar bo'sh yer maydonlari mavjud.

Viloyatda investitsiya jalb etish foydali bo'lgan sohalardan yana biri turizmdir. Viloyatning tog'li tumanlari va Aydarko'l atrofi yangi mehmonxona, dam olish maskanlari, restoranlar va ekoturistik markazlar qurilishi uchun munosib hududlar. Investorlarni bu yo'nalishlar ham qiziqitmoqda. Biznes-forumda turkiyalik sarmoyadorlar Forish tumani hokimligi bilan tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha kelishuvga erishdi.

Xullas, purviqor tog'laru yam-yashil tabiiy archazorlar bag'ridagi "Zomin" turistik zonasida ikki kun davomida bo'lib o'tgan xalqaro forum samarali kelishuvlar, yangi hamkorlar va yangi bozorlar uchun ishonchli ko'priklar yaratildi.

Xalqaro biznes-forum yakunlariga bo'yicha umumiy qiymati 700 million dollarlik savdo-investitsiyaviy shartnomalar imzolandi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun investitsiya muhim. Chunki investitsiya faqatgina pul emas. Bu ishonch, hamkorlik va iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush farovonligini oshirish uchun katta imkoniyat demakdir. Jizzaxliklar bu imkoniyatdan samarali foydalanishga harakat qilmoqda.

Farhod NE'MATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

BOBOYOR AKA ISSIQXONADAN YILIGA 700 MILLION SO'M TOPYAPTI

Mavsum

Termiz tumanidagi Qahramon mahallasida yashaydigan Boboyor Xolboyevning bosh qashishga vaqti yo'q. Bu yil 64 yoshni qarshi olayotgan tajribali dehqon so'nggi uch-to'rt oyda 35 sotixdagi issiqxonasida bir million tup pomidor, bodring, bulg'or qalampiri, baqlajon, qovun-tarvuz, 25 turdagi turli gul ko'chatini parvarishlab, fermer va dehqon xo'jaliklariga peshma-pesh yetkazib bermoqda. Daromad ham mehnatiga yarasha: oila yiliga 650-700 million so'm topyapti.



— Issiqxonamizda 15 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan, — deydi "Do'stlik" ordeni sohibi Boboyor Xolboyev. — Mahalladoshlardan yig'ilgan ishchilarning o'ndan ortig'i xotin-qizlar. O'zimiz ko'chat yetishtirish barobarida issiqxonachilik bilan shug'ullanayotgan mahalladoshlarimizga ham sohaning sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatayapmiz.

Bugun yurt taraqqiyotiga hissa qo'shgan odamning xizmatini alohida e'tiborga olinib, rag'batlantirilmoqda. Jumladan, Boboyor Xolboyev ham o'tgan yili Prezidentimiz farmoniga binoan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

Hozir Surxon vohasida 482 ming atrofida tomorqa egasi bor. Ularga qarashli jami ekin maydoni 49 ming 500 gektar. Viloyatning boshqa hududlari singari Termiz tumanida ham dehqonchilik alohida e'tibor qaratilgan. Tumaning Qahramon mahallasidagi ishbilanmon tomorqasida issiqxona barpo etib, to'rt faslida ham birdek hosil olishga erishmoqda.

— Hozirgi dehqonchilik o'tgan asrning dehqonchiligi emas. Ilmii yondashuv talab etadi. Issiqxonada gul ko'chatlarini parvarishlashda harorat, namlik va to'g'ri sug'orish ham alohida ahamiyatga ega, — deydi Boboyor Xolboyev. — O'tgan yili viloyat hokimi issiqxonamizga kelib, gul ko'chatlari yetishtirish, ko'chalar va maydonlar ko'rkamligi hamda odamlarning ish bilan bandligini ta'minlashga hissa qo'shgan uchun minnatdorlik bildirdi. Tuman mas'ullariga gulchilikdagi tajribamizni ommalashtirish, shu orqali yangi ish o'rnlari ochish bo'yicha ko'rsatma bergandim. Bularning barchasi ishimni yanada kengaytirishga ruhlantirdi.

Issiqxonada gul parvarishlash jarayoni nafaqat sabr-toqat, balki tabiatga chuqur hurmatni ham talab qiladi. Usta dehqon buni to'g'ri anglagan holda har bir ko'chatga alohida mehr beradi. Boboyor Xolboyevning aytishicha, har bir gul o'zining o'sish tarixiga ega va ularni parvarishlashda bilim hamda amaliy tajriba kerak. Shu bois, issiqxonachilik, gulchilikda bugun vohada Boboyor Xolboyev maktabi shakllanyapti. U faoliyatini poliz va sabzavot ko'chatlarini yetishtirishdan boshlagan. Uzoq yillar ko'chatni faqat poytaxtdan olib kelgan

mirishkor issiqxonasini kengaytirib, ko'chatchilikni yo'lga qo'yish, o'zi kabi dehqonlar og'irini yengillatish ishtiyog'i bilan ishlagan.

Mehnat va ezgu maqsad ulug'ynligi evaziga viloyat miqyosida ko'chat yetishtirib beruvchi usta dehqon el og'ziga tushdi. Shu asnoda mahallada ham issiqxonachilik bilan shug'ullanadigan oilalar soni oshdi. E'tiborlisi, bu yerdan ko'chat olgan boshqa dehqonlar ham yillar sinovida toblanib, bugun tajribali mutaxassisga aylangan.

Termiz tumanining unumdor yeri, issiq tafti, qulay tabiati, ob-havo sharoiti barcha turdagi etaripshar qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'ljol hosil olish imkonini beradi. Shu bois, Qahramon mahallasida tomorqasidan yil davomida samarali foydalanuvchilar talaygina.

— Yangi ish o'rnlarni ochishda tashabbuskor tadbirkorlarning xizmati katta bo'lmoqda. Misol uchun, Boboyor Xolboyev o'z issiqxonasida mahalladoshlarini doimiy ish bilan ta'minlagan. Bu kabi xalqparvar tadbirkorlar safi kengayib borayotgani e'tiborga molik, — deydi Termiz tumanidagi Qahramon mahallasi raisi Humoyiddin Xalilov.

— Mahalladagi ishsizlar ro'yxatini shakllantirganmiz. Shu kungacha 100 dan ortiq ishsiz doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirilgan. Yana qariyb shuncha odamni "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa nodavlat ta'lim muassasalari orqali o'qitishni rejalashtirganmiz.

Mehnat insonni ulug'lashi haqida ko'p eshitganmiz, o'zimiz guvohi bo'lgan holatlar ham talaygina. Gul yetishtirib, xalqqa ulashib, qadr topayotgan Boboyor Xolboyev faoliyati misolida yana bir hayotiy, izoh talab etilmaydigan haqiqatga amin bo'lish mumkin. Mehnatni o'zida olib borgan ta'minlab, orzu-havaslarga erishayotgan, boshqalarni ham shu maqsad sari undayotgan usta dehqon bugun elning e'tiborida.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kambag'allikdan farovonlik sari

Shu kunlarda Konimex tumanining Sho'rtepa mahallasida istiqomat qiluvchi Karim Sa'dullayev xonadonidan xaridor qadami uzilmaydi. Sababi tomorqasidagi issiqxonalarda pomidor va bodring ayni pishib yetilgan. Bozorbop mahsulotlarning xaridori ko'p, bozorga chiqishga ham zarurat yo'q. Savdogarlar uning o'zidan olib ketmoqda. Daromad ham shunga yarasha: har kuni oila byudjetiga 3-4 million so'm kirim bo'lmoqda.



BOY BO'LISHNING YETTI IMKONIYATI

Ushbu oila yaqindagina ehtiyojmand, kambag'al oilalar ro'yxatida turar, asosiy muammosi ishsizlik edi. Vaholanki, xonadon tomorqasi samarali foydalanilsa, bemalol ikki-uch oilani obod qilishga yetgulik darajada keng.

Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi mana shunday oilalar uchun ayni muddao va barqaror daromadga yetaklaydigan muhim omil bo'ldi. Mutasaddilar va mahalla mas'ullarining ko'magi bilan Karim Sa'dullayev tomorqasida imtiyozli kredit asosida issiqxona qurib berildi. Shu tariqa oila doimiy daromadga ega bo'ldi.

— Ishsizlik tufayli juda tushkun holatda edik, — deydi oila bekasi Oydin Sa'dullayeva. — Turmush o'trog'im topgan ishlarda daromad yaxshi bo'lmagani bois, qiyinchiliklardan qutulishning imkoni bo'lmadi. Farzandlarimiz voyaga yetgan sari xarajat ko'payib, turmushimiz yanada og'irlashdi. Oilamizga birlashtirilgan mas'ul va mahalla mutasaddilari uyimizga kelganida bu holatimiz davlatimiz e'tiboridan chetda emasligini his qildik. Bizga to'g'ri yo'l ko'rsatildi, imtiyozli kredit asosida tomorqamizda issiqxona qurib berildi. Issiqxonada ko'chatlar ekib, parvarishlashga ko'maklashildi. Hosilga kirgunga qadar xabar olib turildi. Tajribali mutaxassislar muntazam tavsiyalar berdi. Qarangi, tomorqamizda shuncha baraka borligini bilmagan ekannmiz. Endi oilamiz kambag'al emas va doimiy daromadga egamiz.

Prezidentimizning 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori bu jarayonda dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda. Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish jarayonida Navoiy viloyatining barcha shahar va tumanida mas'ullar ko'magida kambag'allikdan chiqayotgan oilalar soni ortib bormoqda. Bu esa ushbu ezgu dastur doirasida tizimli ishlar yo'lga qo'yilganidan dalolat. Viloyatda "Kambag'al oilalar uchun yetitta imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili yo'lga qo'yilgan. Bunda kambag'al oilalar bilan ishlashda barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish, kafolatlangan davlat tibbiy va ijtimoiy xizmatlaridan foydalanish, yashash sharoitini yaxshilash va to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish kabi masalalar ustuvor etib belgilangan.

— 2025-yil boshidagi o'rganishlar davomida viloyatda 62 ming kishi kambag'allik ro'yxatiga kiritilib, 550 rahbar xodimga 2723 ta oila birlashtirilgan, — deydi Navoiy viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i Lutfullo Xayrullayev. — "Mahalla yetitiligi" bilan hamkorlikda har bir kambag'al oila bo'yicha individual dastur tuzildi. Shu asosda ularni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi. Birinchi bosqichda ushbu oilalarda 17 mingta muammo aniqlangan bo'lsa, birlashtirilgan mas'ullar va "mahalla yetitiligi" ko'magi bilan 95 foizi o'z yechimini topdi.

Albatta, farovonlikka o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Buning uchun inson harakat qilishi, imkoniyat izlashi zarur. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturining asosiy maqsadi faqat tekin ko'mak emas, balki ayrim

oilalardagi boqimandalik kayfiyati va dunyoqarashni o'zgartirish uchun to'g'ri yo'l ko'rsatishdir.

Shuningdek, ehtiyojmand oilalarni kambag'allikdan chiqarishning yana bir omili tomorqadan samarali foydalanishdir. Ammo barcha hududda ham buning imkoni yo'q. Sababi sug'orish tizimi bo'lmagan mahallalarda bu eng og'ir masala. Prezidentimiz qarorida ushbu jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu asosda Navoiy viloyatida eng og'ir 41 ta mahalla tanlab olinib, tik quduqlar qovlab suv chiqarish, arilqlar qazib, lotklar qurish uchun 123 milliard so'm ajratildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida ishsiz fuqarolarning turli yo'nalishlarda bandligini ta'minlash orqali doimiy daromadli qishloq uchun barcha imkoniyat yaratilmoqda. Joriy yilda viloyatda 140 ming kishining bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan bo'lsa, birinchi chorakda 27,5 ming fuqaro mehnat faoliyatini boshladi. Shuningdek, yil yakuniga qadar 30,1 ming odamni kambag'allikdan chiqarish orqali viloyatda kambag'allik darajasini 3,4 foizga tushirish rejalashtirilgan.

Bugun yurtimizda hech bir inson o'z muammosi bilan yolg'iz qolib ketmagan. Kambag'al oilalar va ishsiz aholi o'rtasida ham mehnat qilish, daromad topish, yanada farovon yashashga intilish shakllanyapti hamda dunyoqarash o'zgarayapti. Muhimi, zarur ko'mak, sharoit va har tomonlama qo'llab-quvvatlovdan samarali foydalanish farovonlikka yetaklaydi.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

“KITOBXONLIK HAFTALIGI” QANDAY O'TDI?

Dasturning ma'nan kengaygan mundarijasi

Joriy yil 21-aprel kuni mamlakatimiz bo'ylab “O'zbekiston – kitobxonlar yurti” shiori ostida boshlangan V respublika “Kitobxonlik haftaligi” 27-aprelga qadar davom etdi. Haftalik doirasida yangi kitoblar taqdimoti, yarmarkalari, aksiya va viktorinalar, mahorat darslari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. So'nggi yillarda chop etilgan kitoblar taqdimoti, tanqil va yosh adiblar bilan uchrashuvlar, noshir va matbaachilar ishtirokidagi muloqotlar haftalik dasturining eng manfaatli jihatlaridan bo'ldi.



Hakim YO'LDOshev olgan suratlar.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“Libmoh”, “Kutubxonaga qanday boriladi?” aksiyalari, “Mutolaa qilib, sizga ham tavsiya qilamiz” chellenjlar yoshlar orasida o'ziga xos an'anaga aylandi. Qoraalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazi va Toshkent shahridagi madaniyat hamda istirohat bog'lari, shuningdek, tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarida “Noshirdan kitobxonaga” tamoyili asosida kitob savdo-yarmarkalari o'tkazildi.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida poytaxtda tashkil etilgan yarmarkada O'zbekistondagi o'nlab davlat va xususiy nashriyotlar o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Asaxiy Books kabi internet kitob do'konlari rastalaridan ham oxirgi yillarda shov-shuv bo'lgan turli bestsellerlar xarid qilindi. Ishchiklar orasida turli aksiya va kitob tanlovlari ham uyushtirildi. Uch kun davom etgan yarmarkada kuniga 80-100 ta kitob arzonlashtirilgan narxda sotildi.

Yozuvchilar uyushmasining “Parkent ijod uyi”da noshirlar va mualliflar ishtirokidagi uchrashuvda bolalar va o'smirlar adabiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Har yili noshirlar va ijodkorlar oldiga dolzarb muayyan vazifalar qo'yiladi. Bu yilgi vazifalar bolalar adabiyotiga e'tibordan boshlandi. Uni rivojlantirish, xilma-xilligini ta'minlash, bugungi davr talabiga, bolalar ruhiyatiga mos kitoblarni ko'paytirish, yo'nalishning asosiy muammo va kamchiliklarini tuzatish muhokamaning asosiy mavzusi bo'ldi. Shu nuqtayi nazaridan, bu yilgi “Kitobxonlik haftaligi”ning mundarijasi kengaydi. Bolalar adabiyotiga oid tadbirlar, taqdimotlar, teatrlashtirilgan asarlar bilan boyidi. Shuningdek, xorijda bolalar adabiyoti bo'yicha taqdimot qilib borayotgan olimlarimiz bilan onlayn muloqot o'rnatildi. Ushbu yo'nalishdagi xorij tajribasi o'rganilib,



natijasida har qanday ijtimoiy faoliyatda ruhiy-ma'naviy motivlash mexanizmi vujudga keladi. Ushbu mexanizm shaxsning biror maqsadga erishish yo'lidagi aniq faoliyatini ifoda etadi. Talab qiziqishga, qiziqish esa maqsadga aylanadi. Estetik talablar yoki izlanish ehtiyoji mutolaa qiziqishga olib kelib, rejalashtirilgan aniq maqsad — kutubxonaga borish zaruratini yuzaga keltiradi. Haftalikning bosh maqsadlaridan biri ham shu, aslida.

Bugungi yoshlar ertangi avlodning ota-onalaridir. Yildan yilga takomillashib borayotgan “Kitobxonlik haftaligi” bolalar saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilar ekan, bu targ'ibot ta'siri kelajakka ham tatiydi.

Azizbek YUSUPOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Milliy davlatchiligimiz tarixidan

EFTALIYLAR SULOLASI

Eftaliylar, to'g'rirog'i, abdallar sulolasi 440-565-yillarda hukmronlik qilgan. Ular Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asrlar davlatchiligini tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. O'sha kezlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash o'lkalar – bugungi Janubiy Turkmaniston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan eftaliylar sulolasining tayanch hududi Baxtriya-To'xoriston (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) o'lkalarini qamrab olgan edi.

Xitoy, yunon, arman, suryoniy, arab, fors, hind, baqriy va boshqa tillardagi yozma manbalar hamda saroy devoriy rasmlari, tanga pullar, turli buyumlar sirtidagi bitiklar va boshqa arxeologik topilmalardan anglashilishicha, eftaliylar Xitoy, soseniyalar Eroni, Vizantiya kabi o'z davrining kuchli saltanatlar bilan siyosiy va madaniy aloqalar o'rnatib, o'zidan boy meros qoldiradi.

Bu sulola tarixi o'lkamiz va chet el tarixshunosligida ancha o'rganilgan bo'lishiga qaramay, hali ko'plab chigalliklar uchraydi. Ayniqsa, ularning ilk yashagan yurti, etnik kelib chiqishi, davlat boshqaruvi va qo'llanilgan unvonlar bo'yicha bir to'xtamga kelinganicha yo'q. Ayrim izlanuvchilar ularni turkiy elat deb bilsa, boshqaralar ularni eroniy tili bo'lgan, deydi. Shuningdek, eftaliylar Markaziy Osiyoning qaysi o'lkasida — Oltoy to'ngitog' (Tyanshan) etaklarida yoki Orol bo'yida, Pomir yoki Badaxshon tog'larida yashagan, yo bo'lmasa To'xoriston ularning ilk yurti bo'lgani borasida tortishuvlar haligacha o'z yechimini topmagan.

Vizantiya manbalarida Εφθαλίται, Αβδαίται, forscha Heftal, Heptal, armancha Hep't'al, T'etal, arabcha Haytal (ko'plikda Hayatila), xitoycha Yeh-ta, Yeh-tai-i-li-t'o, Hua) ko'rinishlarida tilga olingan bu etnik guruh xitoycha Hua (Avar), yunoncha Var-Xun ko'rinishlarida ham keltirilgan. Shuningdek, xitoy, yunon va boshqa tili yozma manbalarda eftaliylar bilan bog'liq etnik atamalar “avar”, “abdall”, “al-xun” ko'rinishlarida uchraydi, “abdall” atamasi bugun qator turkiy xalqlar — o'zbek va turkmanlarda, Ozarbayjon va Onado'li turklarida biror urug' nomi yoki toponim o'laroq saqlanib qolgan. Bundan tashqari, pushtunlarning yirik bir urug'i “abdalzay” (abdall urug'i), Tojikistondagi aholi maskanlaridan biri Yafтал ushbu etnonim bilan aloqador.

Arab mualliflari barcha turkiy elat va urug'larni emas, ular orasidan “xalax”, “kanjina turklari”ningina eftaliylar izdoshi deb tanishtirib, “Hayatila — To'xoristonni boshqargan qudratli kishilar guruhi, Xalaj va Kanjina turklari ularning avlodidir”, deb yozgan. Chamasi, ularning tili turkiy tillarning boshqa bir tarmog'i bo'lib, milod boshlarida turkiy tillarning ajdodi — qadimgi turk (xun tili)dan ajralib chiqqan.

Turli tillardagi ma'lumotlar boshqa turkiy etnoslar kabi eftaliylarning ham bir necha urug' va qabilaga bo'linganini ko'rsatadi. Xitoy, yunon, arman, hind, arab va fors tillaridagi ma'lumotlar o'zaro solishtirilganda ularning quyidagicha 10 ta urug'i bo'lgani anglashiladi: 1) eftal (abdall); 2) avar; 3) zobul; 4) kanjina; 5) kumji; 6) xalaj; 7) xun (ol xun — qizil xun, oq xun); 8) qarluq; 9) kadis/kadisayer/kadis-xun; 10) cho'l.

Ko'pi turkiy, bir bo'lagi esa eroniy va boshqa elatlardan bo'lgan ushbu urug'lar orasida eftal, oq xun, qizil xun va avar kabilar xunlarning bir tarmog'i sifatida bilangan bo'lsa, kanjina, qarluq, cho'l kabi elatlar esa yo'q. Eftaliylarning, yo bo'lmasa turklar (Turk xoqonligi)ning biror urug'i o'laroq tilga olinadi. Yozma manbalarda eftaliylar va qarluqlar orasida o'zaro qarindoshlik aloqalari borligiga xitoy, arab va fors mualliflari bir necha bor urug' bergan. Gardiziy “Zayn al-axbor” asarida (XI asr) To'xoriston haytallari va qarluqlar yaqinligi to'g'risida quyidagilarni yozgan bo'lib, bu bejiz emas edi: “Turk xoqoni qarluqlarning ko'paygani, ustunlikka ega bo'lgani va To'xoriston haytallari bilan ittifoq tuzib, ulardan qiz olib, qiz bergani va Turkistonning zaiflashganini ko'rgach, o'lkasining oqibatidan qo'rqdi”.

Eftaliylar sulolasining siyosiy jihatdan uyushib, yirik bir kuchga aylanishi bo'yicha shu kabi qarashlar bildirilgan: IV asr o'rtalarida yoki ikkinchi yarmida kelib chiqishi to'laqonli aniqlanmagan yangi ko'chmanchilar guruhi paydo bo'ldi. Ular Vizantiya manbalarida xioniyalar deb atalgan bo'lib, chamasi, Shimoliy Syun-nu (xun)larning birmuncha oldinroq G'arba ko'chishi bilan bog'lanadi. Ular IV asrning o'rtalarida Samarqandni egallab, To'xoristonga o'tgach, bu yerni o'zining tayanch hududiga aylantiradi. 370-yillarda ular soseniyalarga yordam berib, Amid (Diyorbakir)

(Qorashahr) kabi 30 ga yaqin kichik hukmdorlik bo'ysungan.

O'sha kezlarda Xitoyda Shimoliy Vey (Toba) (385-556-yillar) sulolasi yetakchilik qilardi. Eronda esa yirik siyosiy kuch — soseniyalar imperiyasi boshqaruvi tizimini qo'lda tutib, Xurosonni egallash uchun eftaliylarga qarshi kurash olib bormoqda edi. 560-yillarda soseniyalar ham xuddi Xitoyga o'xshab mintaqada yangi siyosiy kuch — Turk xoqonligi o'rtaga chiqishini xayrixohlik bilan kutib oladi va xoqonlikning eftaliylarga qarshi siyosatini qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqaruvi markazi Kobul bo'lgan eftaliy sulolasi tarmoqlaridan birini boshqargan To'raman (515-530-yilda vafot etgan) Hind daryosi qing'og'laridagi bir necha o'lkani bo'ysundirib, Malvagacha yetib boradi. Uning o'g'li Mihraku (515-530-yillar) o'z boshqaruvi markazini Kobuldan Gandxara (Sharqiy Panjob)da Sakal shahriga ko'chiradi. Xitoylik sayyoh Sun Yun u bilan 520-yilda shu yerda uchrashadi. Sayyohning yozishicha, o'sha chog'larda eftaliylar Kashmiri qo'lga kiritgan edi. Hind hukmdori Yasodxarman bitiklaridan aniqlanishicha, 533-yilda u eftaliylarni yengib, Mihraku o'ziga bo'ysundiradi. Shundan keyin Kashmiri tashlab chiqqan eftaliy hukmdori Gandxara (bugungi Pokiston)ga qaytadi.

Eftaliylar sulolasining tayanch o'lkasi To'xoriston bo'lib, bu yerda uning bir necha boshqaruvi markazi o'rin olgan edi. O'lkadagi Chag'oniyon, Termiz, Balx, Qunduz va boshqa shaharlar kushonlar va xioniyalar davrida biror

Eftaliylarning ota-bobolari — Oltoy va O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston), Janubiy Sibir, Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan Xun saltanati boshqaruvchilari o'z davrida Yevrosiyaning eng kuchli otlig' qo'shiniga ega bo'lgan. Ushbu xunlarning harbiy ishini davom ettirib, Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy o'lkalari — Sharqiy Turkiston, Pomir, Badaxshon bo'ylab To'xoriston va Sug'dga yetib kelgan eftaliylar, ya'ni oq xunlar yo'l-yo'lakay boshqa elatlarni, jumladan, tog'lik jangovar elatlarni o'ziga qo'shib olgach, harbiy jihatdan yanada kuchayib, mintaqadagi eng yirik siyosiy va harbiy kuchga aylanadi. Xitoycha “Tan-shu” yilnomasida yozilishicha: “Tuxolo (To'xoriston)... Tuxololiklar idan (eftaliylar) bilan birga istiqomat qiladi, jangovar qo'shini 100 ming”. Tuxolo (To'xoriston) muayyan bir o'ika nomi, idan, ya'ni eftaliy esa xalq va davlat nomi bo'lib, 100 ming qo'shin eftaliylarga tegishli edi.

Eftaliylarning soseniyalar hukmdori Pero'zga yordam uchun 30 ming qo'shin yuborgani haqida ma'lumot uchrasa ular qo'shinining salmog'i ancha katta bo'lganidan darak beradi. Eftaliylar qo'shinining katta qismi otlig'lardan iboratligi, shuningdek, qo'shin 2000 ta filga ega bo'lgani haqida yozma manbalarda eslab o'tiladi. Chamasi, eftaliylar Shimoliy Hindistonni egallagach, bu yerdagi fillarni qo'lga kiritib, hindlar kabi jangda ulardan foydalana boshlagan. Eftaliylar qo'shinining asosiy qismi otlig'lardan tashkil topganini xitoy yilnomalaridagi quyidagi ma'lumot tasdiqlaydi: “Bey-shi” yilnomasida “Yeda (eftaliylar) ot va turalari ko'p... Xalqi qattiqqo'l va jasur bo'lib, jang qilishga mohiridir”, deyiladi.

Eftaliylar qo'shinining bir qismi yayov (piyoda) askarlardan iborat bo'lib, jangchilar boshdan-oyoq po'lat zirh kiygan, boshida dubulg'a, qo'lida “qing'iraq” yoki akinak (xanjarimon uzum to'g'ri qilich)ga o'xshash qurollar bilan urushgan. Buni ko'plab arxeologik topilmalar — Qizil (Sharqiy Turkiston) va Tavka qo'rg'on (Surxon vodiysi) dan topilgan qurol-yarog'lar, saroy devoriy suratlaridagi tasvirlar ham tasdiqlaydi.

Eftaliylar davrida mintaqada sug'diycha, xorazmcha, “noma'lum yozuv” (ehtimol, qadimgi turkiy), karoshi, tiftaliycha yozuvlar mavjud bo'lgan. Eftaliy yozuvi haqida xitoylik Syuan Szyan bunday yozgandi: “Yozuvlaridagi asosiy harflar soni yigirma beshta bo'lib, ular yordamida iboralar, so'zlar yasaydilar. Sahifaga xatni eniga tushiradilar, chapdan o'ngga qarab o'qiydilar”.


Diniy e'tiqod borasida ham xilma-xillikni ko'rish mumkin. Ulkan saltanat ahli zardushtiylik, qadimiy e'tiqodlardan Siyovush, Anaxita, Mitraga, buddaparastlik (asosan Shimoliy Hindistonda) kabi dinlarga sig'ingan. Shu bilan birga, o'lkada Moniy va Mazda ta'limotlari ham tarqala borgan. Eftaliylar Oltoydan ko'chib kelish arafasida tangrichilikka o'xshash inonch tizimi bo'lgan degan qarashlar bor.

Eftaliylarning tashqi aloqalari xalqaro savdo-sotiq yo'llari bo'yicha raqibi Eron bilan g'oyat keskin kechgan. Soseniylarning eftaliylarga o'lpon to'lashi Pero'zning o'g'li Qubod hukmronligi yillarida ham davom etadi. Eftaliylar soseniylarning ichki ishlariga aralashishga intilgan. Masalan, 496-yili taxtdan ag'darilib, qamoqqa tashlangan Qubod qochib, eftaliylar oldiga boradi. Eftaliylar yordamida Qubod 499-yili yana Eron taxtiga o'tiradi. Eftaliylar soseniylarni o'ziga qaram qilib olganidan so'ng ularning imkoniyatidan Vizantiyaga qarshi kurashda foydalangan. Ularning Vizantiyaga qarshi 502-yildagi yurishi soseniylar ishtirokida amalga oshirilgan.

Eftaliylarning Xitoy bilan munosabatlari asosan savdo-sotiq orqali amalga oshirilib, Buyuk ipak yo'lining shimoliy va janubiy yo'nalishlari mintaqadagi orqali o'tishi katta ahamiyat kasb etgan. Ularning Hindiston va Yevropaning sharqiy o'lkalari bilan ham yaqin aloqalarda bo'lgani ma'lum.

Shunday qilib, V-VI asrlarda o'lkamizda, yalpi olganda, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmish dongdor sulolalaridan qolishmagan. Aksincha, eftaliylar sulolasi so'nggi kushonlar zamonida boshboshdoqlik yo'lida kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari va tashqi aloqalarni yanada rivojlantirdi.

G'aybulla BOBOYOROV, tarix fanlari doktori, professor



KUNCHIQARDA ESA EFTALIYLAR 479-509-YILLAR ORALIG'IDA SHARQIY TURKISTONNING BARCHA SHAHAR DAVLATLARINI O'ZIGA BO'YSUNDIRGAN. JANUBDA EFTALIYLAR SHIMOLIY HINDISTONDAGI ULKAN HUDUDLARNI BOSIB OLGAN.

g'arba Hirot va tevaraklari, janubda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan tegra ular qo'l ostida qayta birlashtirilgan e'tiborga olinsa, eftaliylar hokimiyati asosan Kushon sulolasi boshqargan hududlarda yoyilgan edi.

Soseniylar shohi Yazdigird II (438-457-yillar) eftaliylar bilan bir necha bor urushlar olib borgan. Podshoh Pero'z 484-yilda eftaliylar bilan urushda o'ldirilgan va qo'shini tor-mor qilgan. Nafaqat Pero'z, balki uning akasi Xo'muzd ham eftaliylar yordamida Eron taxtini qo'lga kiritgan.

Kunchiqarda esa eftaliylar 479-509-yillar oralig'ida Sharqiy Turkistonning barcha shahar davlatlarini o'ziga bo'ysundirgan. Janubda eftaliylar Shimoliy Hindistondagi ulkan hududlarni bosib olgan.

Oltoy tog'larining sharqiy etaklari, Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonni o'z ichiga olgan kengliklarda Juan-juan yoki Avar xoqonligi (402-552-yillar) deb ataladigan yirik saltanat ko'plab el-uluslarni o'z bayrog'i ostida birlashtirgan bo'lib, eftaliylar sulolasi bilan qo'shnichilik va qarindoshlik aloqalariga ham ega edi. Sharqiy Turkiston va Yettisuv ularning chegarasi hududlari bo'lgan. Xitoy yilnomalarida eslatilishicha, yeda (eftaliylar) kuch-qudratga erishgan paytda (450-yillarda) unga G'arbiy o'lkadagi Kangyuy (Choch yoki Sug'd), Xo'tan, Shale (Koshg'ar), Kucha, Ansi

boshqaruvi markazi vazifasini o'taganidek, eftaliylar davrida ham bu holat saqlanib qoladi. Shuning uchun yozma manbalarda eftaliylar sulolasi To'xoriston o'lkasi o'laroq tilga olinadi. “Vey-shu” yilnomasida 464-yilda Tuxolo (To'xoriston)dan Shimoliy Vey sulolasiga elchi kelgani tilga olingan bo'lib, u, chamasi, eftaliylar tomonidan yuborilgan. “Suy-shu” va “Tan-shu” yilnomalarida esa 615-yilda To'xoristondan Xitoyga elchi jo'natilgani, u xitoyliklarga idan (eftaliylar) bilan yonma-yan yashashlari to'g'risida so'zlab bergani aytiladi.

Eftaliylar sulolasini yuksaltirishda Burqut, Kunxon, Axshunvor, Fag'anish, Varz, Gafnar, To'raman, Mihraku kabi boshqaruvchilarning o'rni katta. Ularning ko'pi qadimgi turkiy, eroniy va hind madaniyat o'zaro qorishgan muhitda yashagan uchun ushbu tillarga xos ism va unvonlarga ega bo'lgan. Shimoliy Hindistonni boshqargan eftaliy hukmdorlardan To'raman va o'g'li Mihraku (542-yilda vafot etgan) ismlari turkiy negizda — to'ra “qonun, tuzuk” + man “eski turkcha ism va sifat yasovchi qo'shimcha”, mihra — eski eroniycha “mitra” (quyosh, quyosh xudosi) va turkiy “qul” (banda) so'zlaridan yasalgan. Eftaliylarning yabg'u, tegin, tarxon, chabish singari turkiy, xutav, buzurg, farmondor, hazoroxta kabi sug'diy va baqriy tillarga xos katta-kichik unvonlari bo'lgani ma'lum.



Baxshichilik

KO'HNA ZAMINDAN TARALGAN

o'lmas navolar

Boshlanishi 1-betda

Yo'l-yo'lakay mashinada gurgun qiziydi. Aeroportning kutish zalida o'zini koreyalik deb tanishtirgan folklorshunos olim bilan qardosh turk vakili, yana o'zimizning olimlar o'zbek tilida suhbatlashib ketadi. Suhbat asnosida ularning bu festival doirasida oldin ham uchrashgani oydinlashadi. Tashqaridan qaragan inson uchun bu samimiy gurgun ishtirokchilari bir vatan, bir oila a'zolaridek taassurot uyg'otadi. Bir vaqt turk qardosh "Go'ro'g'li" dostonidan parcha ayta boshladi. Uning bo'g'iq ovozi bir muddat barchamizni tarq q'riga yetakladi.

Bugun jahon sahnida sodir bo'layotgan talato'plar, ba'zi kuchlar tomonidan xalqlar o'rtasiga nizo urug'i sochilishi, o'zlikdan uzoqlashish, madaniy inqirozlar yuz bermoqda. Shunday bir vaqtda dunyoning turli nuqtalaridan kelgan insonlar ildizi olis o'tmishga tutashgan, xalqlarning boy tarixini tarannum etadigan, insonga ruhiy ozuqa bag'ishlaydigan, tafakkur quvvatini o'zida mujassam etgan dostonlar haqida suhbat qilishda katta hikmat bor.

Zero, dostonlarda el dardi, qarashi mujassam. Uning tinglab ulg'aygan bolalar botir, yurt uchun qahramonlik qilishga qodir, elparvar o'g'illiklar bo'lib ulg'ayadi. Ha, xalq og'zaki ijodi ana shunday yengilmas, yashab qolajak ruhiy quvvat manbaidir.

Insoniyatning qadimiy madaniy beshiklaridan bo'lgan Xorazm diyori ko'plab xalq baxshilarini kamolga yetkazgan. Ular kuylagan dostonlar bugun ham tafakkurni boyitayotgan, o'zlikning ma'naviy o'chog'i o'laroq e'tirof etilmoqda.

Davlatimiz rahbari festival ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida bunga alohida urg'u berdi: "Bu qutlug' zamindan yetishib chiqqan O'zbekiston xalq baxshilari "Bola baxshi" — Qurbonnazar Abdullayev, "Qalandar baxshi" — Ro'zimboy Normatov, Abdulla Qurbonnazarov, Yetimshoy Abdullayev kabi yorqin ovoz va iste'dod sohiblari tomonidan yuksak pardalarda kuylagan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Alpomish" va "Ximondali" kabi xalq dostonlari milliy madaniyatimizning o'lmas durdonalari sifatida ma'naviyatimiz xazinasidan mustahkam joy egallaganini chuqur minnatdorlik bilan e'tirof etamiz va baxshichilik san'atining bugungi davomchilariga ijodiy yutuq va ravnaq tilaymiz".

— Baxshi deganda, xalqimizda sayoz tushuncha bor edi. Ya'ni terma, aytim va dostonlarni kuylaydigan kasb sifatida qaralardi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali har ikki yilda an'anaviy tarzda o'tkazilayotgani sohada katta burlish yasadi. Ushbu festival sabab yurtimizga yuzlab davlatlardan xalq baxshilari kela boshladi. Ular soz va so'z uyg'unligida ijro etgan dostonlaridan yurtdoshlarimiz bahramand bo'ldi, bo'lish imkoni yaratildi. Buning mevasi o'laroq,



— deydi "Shuhrat" medali sohibi, surxondaryolik Ravshan baxshi Mamatumurodov. — Bugun musiqa maktablarida baxshichilik to'garaklari, baxshilarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlovchi Baxshichilik san'ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida doston ijrochiligi kafedrasini ochildi. Bu orqali baxshilar ham oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoni yaratildi. Buning mevasi o'laroq,



xalqaro miqyosda o'tadigan tadbirlarda yosh baxshilarimiz ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Xorazmdagi festival sabab o'zbek dostonchilik maktabini butun dunyo tanidi. Dunyo ahli O'zbekiston baxshilar yurti ekanini e'tirof etmoqda. Baxshi zamon bilan hamnafas yuradi. U jamiyatdagi o'zgarishlarni, qahramonliklarni, vatan muqaddasligini kuylaydi. Festivalning ikkinchi kuni dunyoning turli nuqtalaridan kelgan baxshilar o'zaro birlashdi. Baxshilarning har bir ijrosi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik tomoshabinlarda ham o'z g'azabini taassurot qoldirdi.

Keçki salqin tushishi bilan bellashuv boshlandi. Ilk sahnaga chiqqan surxondaryolik

Jovli Tangirov termani Go'ro'g'lining o'g'li Avazxonga duodan boshladi. Uning temasi millatlarni, xalqlarni ezgulik yo'lida birlashishga chorladi go'yo.

Festivalga Erondan kelgan "Arang" musiqiy guruhi o'z g'azabini shukuh bag'ishladi. Tojikistonlik baxshi Abdurahmon Hasanov "Alpomish" dostonidan Alping chohdan qutulib, yurga qaytishini o'z g'azabini mahorat bilan kuyladi.

Milliy madaniyatimizning asrlar osha yashab kelayotgan "Alpomish", "Rustamxon", "Ximondali", "Oshiq Mahmud" kabi durdonalari bellashuv shavqini yanada oshirdi.

Uch kun davom etgan bu ma'naviy uyg'unish fasli bergan ozuqa uzoq vaqt ko'plab insonlarga yo'ladosh bo'ladi, kuy kuyga, so'z so'zga, ohang ohangga ulandi. Baxshichilik san'ati sadolari mana shunday avloddan avlodga boyib, to'lib-to'lishib o'tib boraveradi. Bu tanlov nafaqat turli mamlakatlardan kelgan odamlarga madaniyatlarini, urf-odatlarini tanishtiradi, balki baxshichilik san'atiga mehri tarq'ib etishga yordam beradi.

Yakunda UNESCO va IESCO hamkorligida o'tkazilgan IV Xalqaro baxshichilik san'ati festivali g'oliblari aniqlandi. Gran-pri Ozarbayjonning "Oshiq" guruhiga nasib etdi. 1-o'rinni Muyassar Jumatova (O'zbekiston) va Milliy baxshilar guruhi (Turkmaniston), 2-o'rinni Usmonjon Abdullayev (O'zbekiston) va Turkipen Konsulu (Qozog'iston) egalladi. 3-o'ringa Ixagayasuren Lxamragcha (Mo'g'uliston), Aksiniya Stepanova (Rossiya) va Ziyodillo Ahmedov (O'zbekiston) sazovor bo'ldi.

Festival doirasida II Turkiy dunyo madaniyati forumi o'tkazilganida ham ramziy ma'no bor. Zero, tariximiz va tafakkurimizda xalqlarimizni umumlashtiradigan jihlatlar juda ko'p. Ushbu forum buni yana bir bor tasdiqladi. Uning doirasida xalq og'zaki ijodini saqlash va rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Unda turkiy dunyoning taniqli davlat va ilm-fan arboblari ishtirok etdi. Quyida ushbu mehmonlarning ayrimlari fikri bilan tanishasiz.

DONISHMANDLIK VA O'ZLIK POSBONI

Mehmet Surayya Er, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi bosh kotibi:

— Xiva turkiy dunyoning madaniy va me'moriy ulug'vorligiga jonli dalil. Bugun uning qadimiy devorlari xalqlarimizning barhayot an'analariga yana bir bor guvohlik bermoqda.

Ushbu festival shunchaki ijrochilik san'ati bayrami emas. Bu turkiy dunyoda donishmandlik va o'zlik posboni sifatida e'zozlangan san'at — baxshichilik ayyomidir. Baxshichilik xalq solnomasini chuqur falsafa orqali dostonlar, she'riy va musiqiy mahorat orqali yetkazadigan abadiy, axloqiy rivoyatlar tajassumidir.

O'zbekistonda bir necha yildan beri o'tkazib kelinayotgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali madaniy aloqalarni rivojlantirishga beqiyos xizmat qilmoqda. Festival ishtirokchilari yil sayin ko'payib, xalqaro miqyosda e'tiroflarga sazovor bo'layotgani ushbu noyob san'at turini saqlash va tarq'ib etishga qiziqish kuchayib borayotganidan dalolat. Bunda, albatta, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o'tkazilayotgan ushbu tadbirning beqiyos o'ri mi bor.

Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doim ko'tarinki ruhda o'tadi. Shu bois, uni shunchaki ijro etish sahnasi deyish xato. U yuksak ma'noga ega nufuzli tadbir. Ya'ni festival turli avlod vakili



bo'lgan va turfa hududlardan kelgan olim hamda ijrochilar muloqoti uchun dinamik forum bo'lib xizmat qilmoqda.

Ishonchim komil, ushbu tadbir milliy baxshichilik san'atini tarq'ib qilish, saqlash va rivojlantirish, shu bilan birga, xalqlar o'rtasidagi o'stik rishtasini va turkiy olamning madaniy-ma'naviy birligini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

Madaniy merosni asrash nafaqat ajdodlarga hurmat, balki kelajak avlod oldidagi burchimizdir. Zero, qadriyatlarini e'zozlash, o'rganish va tarq'ib etish orqali xalqlarimiz birdamligi mustahkamlanadi.

Tilagim shuki, baxshilarning Xivadan taralgan muqaddas go'shig'i butun dunyoga sado berib, avloddan avlodga abadiy hikmatni yetkazib, bizni chegaralar osha birlashtirib tursin.

INSONIYATNING QADIMIY MADANIY BESHIKLARIDAN BO'LGAN XORAZM DIYORI KO'PLAB XALQ BAXSHILARINI KAMOLGA YETKAZGAN. ULAR KUYLAGAN DOSTONLAR BUGUN HAM TAFAKKURNI BOYITAYOTGAN, O'ZLIKNING MA'NAVYI O'CHOG'I O'LAROQ E'TIROF ETILMOQDA.

TARIX VA QADRIYATLAR TIMSOLI

Sulton RAYEV, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY bosh kotibi:

— O'zbekiston turkiy dunyoning ilm-fan va madaniyat beshigidir. Boy tarix, sivilizatsiyaga ega shunday zaminda o'zlikni anglashga qaratilgan nufuzli anjumanda ishtirok etish men uchun ulkan sharaf.

2023-yilda Qorabog' g'azabari — Shusha shahrida tashkil etilgan I Turk dunyosi madaniyat forumi umumiy madaniyatimizning qudrati va hamkorligimiz salohiyatini yana bir bor yaqqol namoyon etgandi.

Bugun esa O'zbekiston Madaniyat vazirligi mezbongidagi ushbu nufuzli forumning ikkinchi bosqichini o'tkazayotganimiz o'zaro madaniy hamkorligimiz barqarorligi va davomiyligini yorqin ifodasidir.

Turkiy madaniyatda har bir naqsh shunchaki chizilmagan. Sopol, gilam naqshlari, musiqa asarlari — ularning barchasi nafaqat san'at namunasi, balki o'zlik, tarix va qadriyatlar timsolidir. Turkiy madaniyat estetikasi va teranligi faqat ko'zni quvontiradigan tasviriy go'zallik emas, u butun insoniyatni birlashtiruvchi umumiy tilga qiyoslanadi. Bu til inson qalbidagi go'zallikni ifoda etadi, madaniyatimiz esa bu umumiy



tilni bizning yagona madaniy maydonimizga aylantiradi.

Bugun dunyo siyosati murakkab va noaniq. Bunday vaziyatda muvozanatni saqlash muhim. Turkiy dunyo ushbu muvozanatni topish uchun tinimsiz izlanmoqda. Bu izlanishga javob shonli o'tmishimizdagi qadimiy madaniyatlar q'riga yashiringan. Turkiy madaniyat esa insoniyatning birga yashashi, umumiy qadriyatlarga asoslanishi uchun zarur kalitni o'zida mujassam etadi.

Kelajakka dadil qadam tashlash uchun biz qalbidagidagi ichki go'zallik, tovulib va estetikaga tayanamiz. Asrab kelayotgan madaniyatimiz esa butun insoniyat uchun umid manbaidir. Ildizlarimiz bir, kelajagimiz umumiy. Birligimiz bardavom, madaniyatimiz barhayot bo'lsin!

O'ZBEKISTON – EZGU TASHABBUSLAR DIYORI

Adil KERIMLI, Ozarbayjon madaniyat vaziri:

— Bugun O'zbekiston nafaqat mamlakat ichkarisida, balki butun turk dunyosida ijodiy tashabbuslarni ilgari surishda yetakchilik qilmoqda. E'tiborlisi, yurtimiz barcha soha, xususan, madaniyat borasida ham yuksalish davrini boshdan kechiryapti. Bu bizni, albatta, quvontiradi.

Xiva shahrida IV Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida II Turkiy dunyo madaniyati forumi o'tkazilgani har ikki tadbirning ahamiyatiga alohida rang va qadr bag'ishladi.

Xalqlarimizning muhim madaniy qadriyatlarini Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida jonlantirildi. Bu, shubhasiz, turkiy xalqlar o'zligining saqlanishi, urf-odat va an'analarimizni kelajak avlodga yetkazishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu kunlarda Xiva shahri turk dunyosining tom ma'nodagi madaniyat markaziga aylandi. Bu yerda umumiy qadriyatlarimizni asrash, himoya qilish va xalqaro miqyosda tarq'ib etishni zimmasiga olgan xalqaro tashkilotlar, davlat idoralari, ilmiy doiralari, madaniyat arboblari va ommaviy axborot vositalari vakillari jamlandi.



Turkiy olam dunyoning eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biriga asos solgan. Shu orqali insoniyat tarixidagi madaniyat va ilm-fan rivojiga mislsiz hissa qo'shgan. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Yunus Emro, Imodiddin Nasimiy, Muhammad Fuzuliy, Abay Qo'nonboyev, Chingiz Aytmatov kabi mutafakkirlar turkiy xalqlar tafakkuri shakllanishi va milliy-ma'naviy ongning rivojlanishida ulkan rol o'ynagan.

Xalqlarimizning madaniy areali faqat bugungi turkiy davlatlar bilan chegaralanib qolmaydi. Madaniy integratsiya jarayoni geografik jihatdan kengroq hududni qamrab olishi lozim. Zero, turkiy madaniyatining global miqyosdagi nufuzi yanada oshsin.

Turkiy dunyoning etnomadaniy xaritasini tuzish, shuningdek, unutilib borayotgan urf-odatlar va nomoddiy madaniy meros namunalari reyestrini yaratish kerak. Bu kelajak avlod uchun bebaho meros bo'ladi. Ushbu sohada ham hamkorlikdagi faoliyatimiz samarali natija berishiga ishonamiz.

Turkiy dunyoda madaniy birdamlik va o'zaro integratsiya g'oyasi mustahkam asoslar ustiga qurilgan. Biz uning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishga qat'iy bel bog'laganmiz. Bu boradagi ishlarimizda O'zbekiston tashabbusi bilan o'tayotgan madaniy haftalik va turli tadbirlarning alohida o'ri mi bor.

Shahin MUSTAFOYEV, Turkiy akademiya prezidenti:

— Qadimiy Xorazmda o'tkazilgan tadbirlar turkiy dunyoni birlashtiradigan chuqurramziy ma'noga ega. Bu serhosil zamin o'tmishda qudratli davlatlar — Qoraxoniylar imperiyasi, Xorazmshohlar davlati va Oltin O'rda tarixida muhim o'rin tutgan. Bu hududning barcha tarixiy davrlari uning boy madaniy kodida o'z izini qoldirganiga shubha yo'q. Arxeologik yodgorliklardan tortib, xalq og'zaki ijodigacha — bularning barchasi O'zbekiston va butun turkiy dunyoning umumiy xazinasidir.

Bugun turkiy davlatlar o'rtasida faol hamkorlik va integratsiya jarayoni ketmoqda. Shu munosabat bilan turkiy davlatlar rahbarlari turli xalqaro maydonlarda o'z siyosiy iroda va qarashlarini ochiq ifoda etmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston juda muhim va mas'uliyatli o'rin tutayotganini alohida ta'kidlamog'chiman.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar xalqlarimiz umumiy tarixi va madaniyatining mustahkam poydevoriga tayanadi. Shu nuqtayi nazaridan, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

MADANIY MEROSIMIZNI O'RGANISH VA ASRASH BURCHI



Bugungi kunda mustaqil mamlakatlarimiz madaniy hamkorlik uchun keng imkoniyatlarga ega. Biz, eng avvalo, boy madaniy merosimizni o'rganish va asrash yo'lida birgalikda harakat qilishimiz kerak. Bu borada, shubhasiz, O'zbekiston, xususan, Xorazm tajribasi boshqa turkiy davlatlar uchun ham ibratli namuna bo'la oladi. Zero, bu zamin Xorazmiy, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Abul'oz Bahodirxon kabi buyuk siymolar vatani hisoblanadi.

Bu o'lka boy ilm-fan, qadimiy me'morchilik va ajoyib arxeologik yodgorliklarga ega. Turkiy davlatlar birgalikda turkiy moddiy va

nomoddiy madaniyatning ajoyib namunalari UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun ham hamkorlikda harakat qilishi kerak. Biz umumiy madaniyatimizni jahon miqyosida keng tarq'ib qilishimiz lozim.

Birgalikda madaniy yo'nalishlar yaratishimiz va umumiy sayohat faoliyatini rivojlantirishimiz kerak. Qisqacha aytganda, madaniyat va turizm vazirlarini, xalqaro, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda mahalliy hamjamiyatlar tomonidan ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur.

Xorazmda o'tayotgan forum doimiy va umumiy platforma shakllanayotganidan dalolat bermoqda. Bu, albatta, quvonarli. Chunki u uzoq muddatli hamkorlik uchun asos bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz. Shu bois, biz kelajakda turkiy davlatlar uchun nihoyatda muhim bo'lgan madaniyat forumi g'oyasini rivojlantirishga har tomonlama hissa qo'shishga tayyormiz.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetlari tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
36811 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060, Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy